

**Surxondaryo viloyati
statistika boshqarmasi**



**2019 yilning yanvar-may oylarida
QURILISH ISHLARI**

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi-

1460,5 mlrd.so'm

Yirik qurilish
tashkilotlari ulushi -

14,5 %

Kichik korxonalar va
mikrofirmalar ulushi -

63,9 %

Norasmiy sektor
ulushi- **21,6 %**

Joriy yilning yanvar-may oylarida Surxondaryo viloyatida jami **1460,5** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **114,5 %**ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 211,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 14,5 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 142,4 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,9 %i yoki 933,1 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,8 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor

hissasiga esa 21,6 % yoki 315,7 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,6 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi - **211,6 mlrd.so'm**

o'sish sur'ati - **142,4 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

hajmi - **933,1 mlrd.so'm**


o'sish sur'ati - **108,8 %**

Norasmiy sektor

hajmi - **315,7 mlrd.so'm**

o'sish sur'ati - **117,6 %**

Yanvar-may oylarida faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 69,3 %ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 24,5 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 3,1 % punktga ko`paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 6,2 % to`g`ri keldi hamda o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga kamaydi.



Yanvar-may oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,1 %ni tashkil etdi.

Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 68,7 % (2,4 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 31,2 %ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 52,7 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,5 % punktga ko'paydi). Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 47,3 % (8,5 % punktga kamayich) tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,0 % punktga kamaydi va 24,7 %ni tashkil etdi.

Qolgan 75,3 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,0 % punktga ko'paydi.

2019 yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

	<i>Jami</i>		<i>shu jumladan:</i>	
			<i>hududiy yirik qurilish tashkilotlari</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>
Surxondaryo viloyati	1460,5	114,5	211,6	142,4
Termiz sh.	412,1	112,6	10,9	107,0
tumanlar:				
Oltinsoy	27,5	106,4	-	-
Angor	65,5	103,9	-	-
Boysun	96,9	111,2	-	-
Denov	104,3	117,2	-	-
Jarqurg'on	96,1	102,9	0,9	-
Qiziriq	52,8	111,5	4,9	385,0
Qumqurg'on	65,7	106,5	22,3	148,7
Muzrabot	52,2	113,2	-	-
Sariosiyo	249,3	132,1	159,1	149,7
Termiz	94,4	121,1	1,1	265,0
Uzun	40,9	108,5	-	-
Sherobod	67,5	112,6	12,2	80,5
Sho'rchi	35,1	112,3	-	-

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)



■ Yirik qurilish tashkilotlari ■ Kichik korxonalar va mikrofirmalar ■ Norasmiy sektor


Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 933,1 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 63,9%) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,8 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 211,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 14,5 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 142,4 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 21,6 % yoki 315,7 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,6 %ni tashkil etdi.



2019 yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarining mulkchilik shakllari bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan)




Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 30,0 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,1 %ni tashkil qildi.



Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 1430,5 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 97,9 %ni tashkil qildi.


Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgani yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o`shish sur`ati Sariosiyo tumanida kuzatilgan bo`lib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`shish sur`ati 132,1 %ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to`g`ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlarining 63,8 %ini tashkil qiladi.



Yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Termiz shahriga 28,2 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sariosiyo tumaniga 17,1 %, Denov tumaniga 7,1 % va Jarqurg'on tumaniga 6,6 % ga to'g'ri keldi.



Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni:

(76) 223-07-15

(71)230-85-81